

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**PHILOLOGICAL RESEARCH:  
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:  
TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:  
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nash etiladi

**2022/ № 7-8**

Termiz - 2022

**Muassis:**  
Termiz davlat universiteti

**PHILOLOGICAL RESEARCH:  
LANGUAGE, LITERATURE,  
EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:  
TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ:  
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА,  
ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan 2020 yil 19  
oktyabrda 1122 raqami bilan  
ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol,  
ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi  
uchun mualliflar javobgardir.  
Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2022

Qog'oz bichimi: 60x84<sup>1/8</sup>

Bosma tabog'i: 5.94

Ofset bosma. Ofset qog'ozi

Adadi: 100

Bahosi kelishilgan narxda

Buyurtma: 155-son

"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi

Termiz shahri,

Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

---

**Tahririyat manzili:**

190111, Termiz shahri,

Barkamol avlod ko'chasi, 43.

Telefon: +998762231649

E-mail:

[philologicalresearch@umail.uz](mailto:philologicalresearch@umail.uz)

Rasmiy sayt:

[www.philologicalresearch.uz](http://www.philologicalresearch.uz)

**BOSH MUHARRIR:**

Avazjon MARAXIMOV, texnika fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI:**

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor

(bosh muharrir o'rinbosari)

Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, dotsent

(mas'ul muharrir)

O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)

Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)

Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)

Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)

Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)

Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)

Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)

Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

# МУНДАРИЖА

---

## TILSHUNOSLIK

---

### **XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA**

#### **NARQABILOVA DILFUZA**

She'riy matnda anaforaning qo'llanilishiga doir ayrim qaydlar .....7

### **ТУРДИҚУЛОВ ШЕРЗОД ДУМИНОВИЧ**

Қисқача теотопонимлар таснифи хусусида .....11

### **ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA**

Qahramon ruhiy holatining muallif realiyasidagi ifodasi .....16

### **CHARIYEV CHARI DAWLETMAMETOVICH**

"Go'ro'g'li" dostoni tilining fonetik xususiyatlari .....22

### **TURDIALIYEV ANVARBEK XUSINOVICH**

Denov qarluqlari shevasida kelishiklarning qo'llanishi .....25

### **AVEZOVA NIGORA SAFAROVNA**

O'zbek va ingliz tillarida inson a'zolari harakatini ifodalovchi fe'llar tarjimasini tahlili .....28

**Resume.** The article is devoted to the study of the linguistic features of the Karakalpak folk dastan “Gorugly”. Based on the analysis of obsolete words used in the epic on various topics, and phonetic differences in words, the variants of morphemes used in the epic were identified, the influence of the languages of neighboring Oghuz and other peoples on our language in the field of phonetics and morphology was determined.

**Резюме.** Статья посвящена изучению лингвистических особенностей каракалпакского народного дастана “Горуглы”. На основе анализа устаревших слов, употребляемых в эпосе на различные темы, и фонетических различий в словах выделены варианты морфем, употребляемых в эпосе, определялось влияние языков соседних огузов и других народов на наш язык в области фонетики и морфологии.

Philological research: language, literature, education

2022; 7-8

**Qabul qilingan sana:** 03.12.2022

**Nashr etilgan sana:** 27.12.2022

**ISSN:** 2181-1741 (Print); ISSN: 2181-1725

## DENOV QARLUQLARI SHEVASIDA KELISHIKLARNING QO‘LLANISHI

**Turdialiyev Anvarbek Xusinovich,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti

Dialektologik tasniflarda Surxondaryo viloyatining shevalari “ž”lovchi shevalar deb tariflandi. Surxondaryoning Denov, Sariosiyo, Uzun, Boysun, Termiz va Oltinsoy tumanlarida “j” lovchi sheva vakillari yashaydi. G.F.Blagova, X.D.Doniyorov<sup>1</sup>, A.Ishayev, Q.Muhammadjonov, Mamatov, M.Nosirov<sup>2</sup>, S.Rahimov<sup>3</sup>, D.Abdurahmonov<sup>4</sup> kichik dialektologik tadqiqotlarda Denov qarluq shevasining o‘rni va lingvistik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu ishda Denov qarluqlari nutqida kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanishi haqida to‘xtalangan. Maqolani yozishda Sh.Shoabdurahmonovning “Карлукское наречие узбекского языка” monografiyasi, S.Rahimovning “Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (фонетикаси, лексикаси)” monografiyasi va yuqorida tilga olingan tilshunoslarning maqolalari hamda Denov tumanida yashovchi aholidan yozib olingan audio material va kuzatishlardan

foydalanildi. Denov qarluq guruh shevalaridagi kelishik qo‘shimchalari 4-5 kelishikli shahar shevalari Toshkent-Farg‘ona dialekti, Qarshi, Samarqan-Buxoro dialekti shevalari bilan qiyoslandi. Maqolada kuzatish, qiyoslash, tasniflash, sintezlash va statistik metodlardan foydalanildi.

O‘zbek shevalarida kelishiklar soni turli xil-da uchrashi ma’lum. Bunga sabab qaratqich - tushum va o‘rin-payt - jo‘nalish kelishiklari farqlanmasligidir. Denov shevasining qarluq guruhida ham buning turlichaligini ko‘rishimiz mumkin. Bu shevada ham bosh kelishik maxsus belgiga ega emas. Qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalarida qaratqich kelishigi bilan tushum kelishigi bir xil (-ni... ) ko‘rsatgichga ega bo‘lib, formal jihatdan farqlanmaydi. Shunga asoslanib V.V.Reshetov 1951-yilda Toshkent, Farg‘ona tipidagi shevalarda yagona qaratqich-tushum kelishigi mavjud deb ko‘rstgan<sup>5</sup>. Qaratqich-tushum kelishigini bitta ko‘rsatgich bilan ifodalanishi haqida Ya. Gulyamov, N.Gafurova, B.Jurayev, I.Farmonov, O.Sharipov, S.Tulyakov, Sh.Nasirov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, A.Shermatov, T.Qudratov, M.Shoinoyatova, M.Mirzayev kabi olimlar o‘z fikrlarini bildirishadi (Ўзбек халқ шевалари морфологияси. 1984. 35). Denov shevasida kelishiklar Qarshi, Sam-Buxoro shahar

1 Благова Г.Ф., Данияров Х.Д. Говоры “тюрков” Узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы. Вопросы языкознания. – Москва, Наука, 1966.

2 Носиров, М. Сурхондарё шевалари буйича айрим кузатишлар (дialeктологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. № 5. Б. 67 - 69.

3 Раҳимов, С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1985.

4 Абдурахмонов Д., Қорлуқлар ва уларнинг тили. Ўзбек тили ва адабиёти, №3. – Тошкент, Фан, 1987.

5 Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – В. 35.

shevalari singari qaratqich-tushum (**-ni, -niñ**) va jo'nalish-o'rin-payt kelishiklari (**-ga, -da**) bir ko'r-satgichga ega.

- Bizzi uruyladan bevāšlā ko(v)p čiqqan **pāššāni** žiyiga tetekānnān kejin, bādigā tekānān kejin badar̄ya qilingān kejin šergā tohtājmiz deb šergā tohtāgān.

- Ātā uruylarimiz āsli **šāhrisābzni** qonyirātidan, kenāgās degān žāji bār. Šu sāngārdākkā kelip, hee bāyčāgā kelip kegin kopājib ketgān.

Shevaning fonetik qonunlariga (yon tovushlar va so'zning o'zak yoki negizida old, orqa qator unlilar va chuqur til orqa undoshlarining kelishi, so'zlarning qaysi undosh tovush bilan tugashi va b.) muvofiq kelishik qo'shimchalari turli shakllarda (talaffuz etiladi) qo'llanadi, ayrim o'rinlarda bo'lsa nutq jarayonida ba'zi kelishik qo'shimchalari tushib qoladi. Denov shaharda yashovchi aholi qishloqlardan ko'chib kelgan o'zbek va tojik tili aholi bo'lib, so'zlashish tili o'zbek tili. Bu shevada adabiy til va tojik tilining ta'siri natijasida yoshlar nutqida kelishiklar soni 6ta, yoshi kattalarda 5ta kelishik qaratqich va tushum kelishigi belgisi **-ni** qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Ushor, Oybarak, Cho'ntosh, Sohibkor, Oloviddin, Ilonsoy, Qizil Farg'ona qishloqlarida 4 kelishikli sheva hisoblanadi. Bu qishloq shevalarida o'rin-payt kelishigi va jo'nalish kelishigi bitta **-gā//ga**, tushum va qaratqich kelishigi **-ni** qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Qoraxon, Yurchi QFY, Hazarboğ' QFY markazi (1-bo'lim), shahar atrofidagi qishloqlarda kelishiklar soni 5tani tashkil qiladi. Bu shevalarda tushum va qaratqich kelishigi **-ni** qo'shimchasi bilan ifodalanadi.

**Qaratqich kelishigi** shevada so'zlarning qaysi undosh bilan tugashiga qarab quyidagi variantlariga ega bo'ladi: **-niñ, -iñ, -diñ, -tiñ, -iñ, -di, -ti, -zi, -i;**

- Māčit qiganda bizdi bābājlā jārdāmgā bārādi.

- ulārdi ārqasidan ādām tušgāndā, beqa mēnā hāvār ketgān

- qojbeš minān mār̄ti ārāsīgā mēnā bergā.

Qaratqich kelishigi sporadik ravishda **-mi akamni hovlisi – ākāmi hā(v)lisi, gulni bargi – gulli bārgi, oshtni go'shi – āšti goši** shaklida qo'llanadi.

**Tushum kelishigi.** **-ni, -di, -ti, -i** variantlari unli va undosh tovushlarning tugashiga qarab o'zgarishi kuzatildi: **tokni yuldi - tākdi julli – tāk-ki julli**. Ko'pchilik shahar shevalari singari Denov shevasida ham tushum kelishigi belgisiz qo'llanadi: **qo'yni sotadi – qoj sātādi, paxtani terdim – paxta terdim.**

- Inā: kejin mēnā bu ošārgā kegāndān kejin bizzi bābājlā nān, čāj qojgan, nā:ni ošāri deb nām

qo'ygan, sināgā ānguri sinā deb nām qo'jib ketgānlā

- Hāzrāt Āli kāpirlādi qatl qilip-qilip šu tārāpkā qāčkan, kānāllik dejmiz beqi qaja-beqi qaja Hāzrāti Āli hāmāsini qirgān.

- Nijāz bāqi degān ekita xalpalari (bogān) bār ākān, u kiši xat jāzib berādilārki xalpalari xatti ilān-la pāššāsīgā ābārādi.

- Mehmāndostligi šu sināčilārdāj, ākālārim bār. Xudā:qulov bāzārvāj dejdi. Sināgā qāmadi šu bu jil jānvārdā āxiri olli. Sāvet dāvrigā qurilišti bāšliyi edi sināgā.

Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchasi unlilardan va **"j"** undoshidan keyin asosan **-ni** tarzida aytiladi. **o'zingni – ozijni, akangni – ākājni**, unlilardan keyin ham **-ni** shakli qo'llanadi: **yarani –jārāni, bovalani –bāvālāni**. Shahar markazida yashovchilar va hudud aholisining o'qimishli qatlami imkon qadar **-ni** ishlatishga harakat qiladi. Ba'zan ularning nutqida jaranglilardan keyin **-di**, jarang-sizlardan keyin **-ti** **"itni –itti, otni – ātti"** tarzida talaffuz qilinadi. Shahardan uzoqqa yashovchi sheva vakillari nutqida jaranglilardan so'ng **-di, -zi**, jarang-sizlardan so'ng **-ti** shaklida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari tolni-tālli, akamni-ākāmi so'zlarida **-li** va **-i** ko'rinishi uchraydi. Ushor, Oybarak shevalarida sonorlardan keyin faol ravishda **-di** ishlatiladi, **-i** esa har ikkala kelishikning ham qisqartirilgan varianti bo'lib **bizning uy - bizi uj, biznikiga keling - bizikigā keliñ** kabi bir bo'g'inli va birdan ortiq bo'g'inlarda egalik affiksidan keyin qo'shiladi. Qaratqich va tushum kelishigining bunday qo'llanishi o'zbek tilining Andijon shevasida ham uchraydi'. Qorluq guruh shevalarida Qaratqich va tushum kelishigining **-iñ, (-ънғ: Буххэрэнг чөлъ – Вухоронинг чо'ли; кәттәләрънғ қәмәв қойдъ - kattalarini qamab qo'ydi;)** shaklini qo'llanishi va **-di, -ti** variantining ustunligi haqida D.Abdurahmonov o'zining "Qorluqlar va ularning tili" maqolasida ma'lumot beradi.

Qoraxon, Yurchi QFY, Hazarboğ' QFY markazi (1-bo'lim), shahar atrofidagi qishloqlarda o'rin-payt kelishigi **-da, -dā** qo'shimchalari talaffuz qilinadi. Bu hududlarning ayrim aholi vakillari nutqida **-gā, -gā** uchraydi. Masalan: **-uni topgā sālip tepādilā, ālāvdi jāqadila oldiriš učun, ālāpti kālpāstā pudādi, čumčūq ālāp qildi**. Bunday qo'llanishi yoshi katta mo'ysafidlar va qishloqdan chiqmay mehnat qilgan kam sonli ayollar nutqida mavjud.

- Dud āgāndān kejin **ālāpgā** tušādi. Bu jerdā heč xalq bomāgān **māhālgā** ājmāy degān uruy kegān ajmāy degān uruy Buxarāda bār ākān.

1 Иброҳимов, С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент: Фан, 1967. – В. 144.

O'rin-payt kelishigi affiksi unli va jarangli undoshlardan so'ng **-da**, jarangsiz undoshlardan keyin **-ta** shaklida va ayrim o'rinlarda **tog'da- tāqqa, bog'da- bāqqa** ko'rinishda talaffuz qilinadi.

- *Ha hush kordik nevarām, sālāmātmi narjaqa otirmāj berjaqa otiripsilāre, āvajnilara:m jaxšimi.*

- *uš-tort soätlādän keyin soät **unbirlägä** ālip ketgän bosä soät **torlägä** bāstirib kelli, šunāj qib menām bir tušdim.*

**Jo'nalish kelishigi -ga, -gä (-da, -da).** Tayanch shahar shevalarida quyidagi variantlari bilan ishlatiladi: Tosh. **o'yga - oygä**, Farg'. **Uyga - uygä, otga - ātkä, bog'da - bāqqa**. Jo'nalish kelishigining bunday qo'llanishi Denov qarluq guruh shevalariga ham talluqli bo'lib **-ga, -gä, -ka, -kä, -qa**, ko'rinishlari mavjud. O'zbek shevalarida uchraydigan **-da > -ga** almashinishi haqida M.Mirzayev quyidagi fikrlarni beradi: **-da** affiksining o'rnida **-ga (-qa, -kä)** formasini ishlatish qadimiy turkiy tillar qoldig'idir. Qutadg'u biligda **-da>ga (-qa, -ya)** almashinishi, Boburnomada **-ga > -da** o'zgarishi uchraydi<sup>1</sup>.

-*qarañ mänä keläpti qapqara ādām mäsälän sāqāllar osip ketkän, ustigä eski kijim ādām ošä päjtlär kok žuldir čäpän kijardi, šunāj čäpāni bār, kelip soräjäpti jaxši māmilä bilän sālom ālik **qoligä** kelip soräyāpti jängäžän qoj bāqib juruvdik heč nārsāmiz joq qolimizga deb, – berdim pāmīdār be:dim, tāmārqamga hämmä nārsām bā:.* Hämmä nā:sādän uzib-uzib bir belvāy nārsāni birinči mättä be:dim. Ushä birinči mättä issiy nān piširuvdim kejingi märtäjäm berivārdim. Ba'zi o'rinlarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga** chiqish kelishigi **-danni** o'rnida qo'llanadi:

*samolyotni ovozidan qulog'im bitdi – sāmājlāt-ti(sāmälätti) ävāzigä qulāyim bitti;*

*oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin – ärägä uš-tor kun otkännän kejin;*

**Chiqish kelishigi - dan, -dän, -tan, -tän, -nan, -nän.** Chiqish kelishigi ifodalanish jihatidan j-lovchi va ž-lovchi shevalarda ma'lum darajada farq qiladi. -dan affiksi o'zi qo'shilib kelgan o'zak-negizning qanday tovush bilan tugashiga qarab bir necha xil fonetik variantiga ega. **-dan, -dän, -tan, -tän, -nan, -nän, -an, -än, yerdan – jerdän, daraxtdan – daraxtan, otdan – ättän, akamdān – äkännän, xamsayadan – xamsajadan.** Qarluq guruh shevalarida aksariyatida bu kelishik qo'shimchasi shunday masalan: Toshk., And., Namangan, Uychi, Farg', Qo'q., Pop, Qarshi, YuQSh(or.), Kqo'rg', Qarnob kabi shevalarda<sup>2</sup>.

- *Bir čiqāt bir mäsīn bāriv yurra toxtadi, juqāri-dan toxtädidä mäsīni arqasini āčtidä bir sālāfānni tuširdi. mänām kārāvāti ustigä otiruvdim ästā-ästä bodim bārsän **sālāfändän** bir nimä tuširdi mänä šunčä dumi bār bilinib turipti, äjppāy šunāj jāy, källä jāy, ajāyla **munän** āb täšlāgän.*

O'rganilayotgan hudud shevasidagi chiqish kelishigi xususiyati Buxoro dialekti singari **-dan//tan, -dän//nän** parallel ishlatilishi kuzatildi: **Otamdan – ätämnän, kundan – kunnän, nondan – nännän, samarqandan- samarqannan.** Bunday holat Xorazm qip-o'g'uz shevalarida ko'proq uchraydi<sup>3</sup>.

- *hämmä ädirgä čiyip ketäpti, ungä turip qišlāqtan bittä jārīmtä soräsä **učipni-mi** bir bälä dedi.*

- *Šunāj **pišgänän** kejin uštä läli bedim.*

- *Xoja āhrār välij āpälāridän oržigän ilqi bāqqan, ojlñätirāmän **degännän** kejin čiyib kegän.*

- *Bizzi uruyladan bevāšlä ko(v)p čiqqan pāššāni žiyiga **tekännän** kejin, bädigä **tekänän** kejin badarya qilingän kejin šergä tohtājimiz deb šergä tohtägän.*

- *āldinänäm šu işlāp kegändä bāčä täjārlājdi.*

- *ilmij işni **tāškenän** āgānsizä.*

- *ilāsāj dejmiz ilānsājdi turk dijdi endi, bāšqača xalq kopi nekin äjbārāki bāru **unän** bu tāmāngä märtgä tāmāndāgisi qonyirāt kobi ešän mänāvi häjkālñi ozi neči xil, āšidāj ādāmlār **čiqanan** kejin kättä joldä žlovčilar bār.*

Hududning Ushor qishloq shevasi qariyalari nutqida **-keyin** ko'makchisidan oldin kelgan chiqish kelishigi qo'shimchasi **-na: (undän)** ko'rinishi uchrashi qayd qilindi.

- *Xuparilardi Xubbari degän xuddiki bir čirājli pärigä oxšagan, **Inä:** kejin mänä bu ošārgä kegännän kejin bizzi bābājlä nān qojgan.*

- ***Inä:(n)** kejin āmān-āmān bogän äkän.*

Chiqish kelishigi ba'zan boshqa kelishik qo'shimchalari o'rnida yoki ular bilan parallel keladi: **dunyoda ikki o'g'lim bor –dünjädän ekki o(y)lim bār, qo'lda tikamiz – qoldan tikämiz, sendek odamning boridan yo'g'i yaxshi – sandaqani ādāmdän bāridän joyi jaxši, qovun qovunni ko'rib rang oladi – qāvun qāvundan rāñ ālādi**, farg'onachilar nutqida: **tekinga pensiya olyapti - tekinnän pensiyä ālāpti.** Shevalarda parallel yoki o'rnida qo'llanish Parkent, Qo'qon, Xazorasp, Qarshi, Yangiariq, Niyozboshi, Farg'ona, Andijon shevalarida uchraydi (*qiyoslang. Ūzbek xalq shevalari morfologiyasi*)<sup>4</sup>. Xulosa

1 Mirzaev M.M. Ūzbek tilining Buxoro guruh shevalari. – Toshkent: FAN, 1969. – B. 47.

2 Ūzbek xalq shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984.

3 Shu asar.

4 Ūzbek xalq shevalari morfologiyasi. Toshkent: Fan, 1984.



o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalq shevalarida kelishiklar qo'llanish jihatidan deyarli bir - birini takrorlaydi bunday ko'rinishga kelishiga esa adabiy til va aholi migratsiya sabab deb qaraladi.

**Resume.** In this work, the use of agreement suffixes in the speech of the Denov Qarluqs is discussed. In writing the article, the monograph "Karlukskoe narechie uzbekskogo yazyka" by Sh. Shoabdurahmonov, the monograph "Uzbek language Surkhondarya dialects (Phonetics, Lexicography)" by S. Rahimov and the articles of the above-mentioned linguists, as well as audio material and observations recorded from residents of Denov district were used. Consonant suffixes in dialects of Denov Karaluq group were compared with urban dialects with 4-5 consonants, Tashkent-Fargona dialect, Karshi, Samarkand-Bukhara dialects.

**Резюме.** В данной работе обсуждается употребление суффиксов согласия в речи деновских карлуков. При написании статьи были использованы монография "Карлукское наречие узбекского языка" Ш.Шоабдурахмонова, монография "Узбекский язык Сурхандарьинские диалекты (фонетика, лексикография)" С.Рахимова и статьи вышеупомянутых лингвистов, а также аудиоматериал использовались наблюдения жителей Деновского района. Согласные суффиксы в говорах деновско-каралукской группы сопоставлялись с городскими говорами с 4-5 согласными, ташкентско-фергонским говором, каршинским, самаркандско-бухарским говорами.

---

Philological research: language, literature, education

2022; 7-8

**Qabul qilingan sana:** 23.11.2022

**Nashr etilgan sana:** 27.12.2022

ISSN: 2181-1741 (Print); ISSN: 2181-1725

---

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA INSON A'ZOLARI HARAKATINI IFODALOVCHI FE'LLAR TARJIMASI TAHLILI

**Avezova Nigora Safarovna,**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ikkinchi chet tili kafedrasida katta o'qituvchisi

Tarjimada qiyosiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalaniladi. Aksariyat o'zbek tilshunoslari o'zbek va inglizcha so'zlarning tarjimasini tahlil qilganlar, buning bir qismini tana harakati tasvirlangan fe'llar tashkil qiladi.

Tarjimada qiyosiy tahlilning maqsadi – umumiy tarjima jarayonida qoidalarni o'rganishdir. Tarjima nazariyasida qiyosiy tahlil so'zlarni qiyoslash va gaplar tahlili natijasida olingan fakt (dalil)ga asoslanadi. So'zlarning turli xil xususiyatlarini boshqa til bilan taqqoslash har xil so'zlarning har xil belgilarga ega ekanligini ko'rsatadi. So'zning shakli, semantik tuzilishi va ularning nutqda qo'llanilishi juda xilma-xildir. Har bir tilning o'ziga xos leksik tuzilishi mavjud.

Biz ko'p hollarda inglizcha so'zning ma'nosini ifodalovchi o'zbek tilida ekanligini

ko'rishimiz mumkin. Masalan, "hand" so'zi, ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlarning xilma-xilligi bog'lovchi qo'shimchalar orqali boshqa qoshma so'zlarni hosil qiladi. Masalan, "hand" (handful, handiness) qo'l (qo'lla, qo'lsiz, qo'lli).

Ingliz tilidagi "to take" fe'li o'zbek tilidagi "olmoq" fe'li bir necha ma'noda mos kelmaydi. Masalan: *to take an exam* – imtihon topshirmoq; *to take tea* – choy ichmoq; *to take off* – yechinmoq; *to give an examination* – imtihon olmoq; *to have a rest* – dam olmoq; *to take photo* – rasm olmoq.

O'zbek tilidagi inglizcha so'zning leksik valentlik darajasi so'zda bir xil emas.

Masalan: o'zbek so'zidagi "ko'tarma" "qo'l", "stul" kabi otlar bilan birikishi mumkin. Ammo uning ma'nosi "ko'tarish" fe'li bilan ifodalana-